

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03./04.10.2023.T.174.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**YULDASHEVA DILDORA BAXODIRJON QIZI**

**TABIY IPAKDAN TO‘QIMA ISHLAB CHIQRISH UCHUN  
PISHITILGAN IP TAYYORLASH TEXNOLOGIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**05.06.02 - To‘qimachilik materiallari texnologiyasi  
va xomashyoga dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on technical sciences**

**Yuldasheva Dildora Baxodirjon qizi**

Tabiiy ipakdan to‘qima ishlab chiqarish uchun pishitigan ipa tayyorlash  
texnologiyasini takomillashtirish..... 3

**Юлдашева Дилдора Баходиржон қизи**

Усовершенствование технологии подготовки крученых нитей для  
производства тканей из натурального шелка..... 27

**Yuldasheva Dildora Baxodirjon kizi**

Improvement of the technology for preparing twisted silk yarn for textile  
production from natural silk..... 51

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works..... 55

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03./04.10.2023.T.174.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**YULDASHEVA DILDORA BAXODIRJON QIZI**

**TABIY IPAKDAN TO‘QIMA ISHLAB CHIQRISH UCHUN  
PISHITILGAN IP TAYYORLASH TEXNOLOGIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**05.06.02 - To‘qimachilik materiallari texnologiyasi  
va xomashyoga dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida <https://B2025.2.PhD/T5711> raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Farg'ona davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.namdtu.uz](http://www.namdtu.uz)) va «Ziyonet» axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Muhammadrasulov Shamsiddin Xasanovich**  
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
katta ilmiy xodim

**Rasmiy opponentlar:**

**Yuldashev Jamshid Qambaraliyevich**  
texnika fanlari doktori, dotsent

**Abdullayev Ulug'bek To'lanbayevich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Andijon davlat texnika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/04.10.2023.T.174.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "10" yanvar soat 13:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Namangan shahar, Janubiy aylanma yo'li ko'chasi, 17-uy, Tel. (998) 69-234-14-85, (998) 69-234-19-96. e-mail: [info@namdtu.uz](mailto:info@namdtu.uz) , Namangan davlat texnika universiteti 15-bino, 1-qavat, ilmiy kengash xonasi).

Dissertatsiya ishi bilan Namangan davlat texnika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№102-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Namangan shahri, Islom Karimov ko'chasi 12-uy, Tel. (998) 69-234-14-85). e-mail: [info@namdtu.uz](mailto:info@namdtu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "24" dekabr kuni tarqatildi.  
(2025-yil 09 sentyabrdagi №62-raqamli reestr bayonnomasi).



*[Handwritten signature]*

**Q.M. Xoliqov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi texnika  
fanlari doktori, professor

*[Handwritten signature]*

**X.T. Bobojanov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
texnika fanlari doktori, dotsent

*[Handwritten signature]*

**J.Q. Yuldashev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi Ilmiy seminar  
raisi, texnika fanlari doktori, dotsent

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahonda to‘qimachilik sanoatida ipakchilik salmoqli o‘ringa ega bo‘lib, Xitoy, Hindiston, Koreya Respublikasi, Braziliya, Italiya va Fransiya kabi davlatlar bu sohada etakchi mamlakatlardan hisoblanadi. Dunyo miqyosida ishlab chiqarilayotgan ipakning 60 foizi Xitoy va Hindistonning hissasiga to‘g‘ri kelmoqda<sup>1</sup>. Ipakchilik sanoatini izchil va barqaror rivojlantirishda nafaqat ipakchilik korxonalarida zamonaviy asbob - uskunalarni joriy etish, balki mahsulotning sifatini nazorat qilish, boshqarish va yangi assortimentlarni yaratish, jahon bozorida raqobatbardosh ipak mahsulotlarini amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan zamon talablariga mos keluvchi samarali va resurstejamkor texnologiyalarni yaratish va ulardan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda ipak to‘qimachilikni ishlab chiqarishda zamonaviy yangi texnika va texnologiyalarni samaradorligini yanada oshirish uchun ipak to‘qimachilikni ishlab chiqarish, tabiiy ipak iplarini to‘quvchilikka tayyorlash texnika va texnologiyalarini takomillashtirish, parametrlarini ilmiy asoslash va optimallashtirish bo‘yicha kompleks ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, ko‘ylakbop ipak to‘qimachilikni ishlab chiqarish texnologiyasini taqomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Bu borada tabiiy ipakdan iplar assortimentini kengaytirish va ulardan ko‘ylakbop to‘qimachilikni ishlab chiqarishda keng foydalanish, inson salomatligi va kundalik faoliyatiga mos keladigan sifatli to‘qimachilik buyumlarini ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirishga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda tut ipak qurti pillasining texnologik va sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash, pillani chuvishga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish, sifatli ipak mahsulotlari ishlab chiqarish hamda ularning yangi assortimentlarini ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida, jumladan «qishloq xo‘jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish, bunda pillachilik sohasida klaster tizimi asosida 105 ming gektar yangi tutzorlarni barpo qilish va 1 milliondan ortiq yangi ish o‘rinlarini yaratish...»<sup>2</sup> bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, xom ipak ishlab chiqarish va uni qayta ishlash, ipak iplariga buram berish texnologiyalarini takomillashtirish, ipak iplarini to‘qishga tayyorlash texnologik jarayonlarini tadqiq qilish hamda ipakka buram berish jarayonlarining optimal parametrlarini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, bir qavatli xom ipakdan tanda va arqoq iplari olish, ularga buram berish texnologiyasi ishlab chiqish, tabiiy ipakni to‘qishga tayyorlash jarayonlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston respublikasi prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi, 2025 yil 19 sentyabrdagi PQ-290-son «To‘qimachilik va tikuv-trikotaj

---

<sup>1</sup> <https://inserco.org/en/statistics>.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi” to‘g‘risida PF-158-son Farmoni

sanoatida islohotlarni jadallashtirish va eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2025 yil 19 sentyabrdagi PF-174-son «Yengil sanoat sohasida yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport hajmini oshirish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish to‘g‘risida»gi, 2020 yilning 17 yanvardagi PQ-4567-son «Pillachilik tarmog‘ida ipak qurti ozuqa bazasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur ilmiy tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II. “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Tut ipak qurti pillasi yetishtirish va pillaning texnologik va sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash, pillalarni chuvishga tayyorlash va pillani chuvish texnologiyalarini takomillashtirish, yuqori sifatli xom ipak, ipakli gazlama va mahsulotlar ishlab chiqarish, ularning yangi assortimentlarini yaratish kabi masalalarni tadqiq etish bilan horijda A.N.Hazarika, A.Gogoi, H.Ishikawa (Yaponiya), Rajashree Phukon, Nabanita Gogoi (Braziliya), Ratindra Hat, R.Eren, Rajkumar Govindaraju, M.Madsood, Ya.Shaker (Hindiston), K.Sen (Xitoy), V.V.Linde, V.A.Voroshilov, V.A.Usenko, G.N.Kukin, A.P.Minakov, G.I.Koriskiy, G.V.Sokolov, M.N.Belisin, V.A.Gordeyev, V.I.Vasilchenko, Ye.D.Yefremov, V.P.Sherbakov, P.V.Vlasov, S.D.Nikolayev, S.M.Kiryuxin (Rossiya) va boshqalar shug‘ullanishgan.

Respublikamizda pillani chuvishga tayyorlashga, chuvish hamda sifatli xom ipak ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirishga, tayyor ipak mahsulotlarining xaridorgir bo‘lgan yangi assortimentlarini ishlab chiqishdagi jarayonlarni tashkil etishning nazariy va amaliy asoslarini yaratish bo‘yicha tadqiqotlar E.B.Rubinov, X.A.Alimova, E.Sh.Alimbayev, O.A.Axunbabayev, G‘.N.Valiyev, A.B.Ishmatov, A.D.Daminov, P.S.Siddikov, A.E.Gulamov, J.A.Axmedov, N.M.Islambekova, Sh.X.Muxamadrasulov va boshqalar tomonidan bajarilgan.

Shu bilan birga, xom ipak ishlab chiqarish va uni qayta ishlash, ipak iplariga buram berish texnologiyalarini takomillashtirish, xom ipak iplarini to‘qishga tayyorlash texnologik jarayonlarini tadqiq qilish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan bo‘lishiga qaramasdan bir qavatli eshilgan xom ipakdan yupqa, nafis ipakli gazlamalarni ishlab chiqarish texnologiyalari, ularni parametrlarini optimallashtirish, eshilgan bir qavatli xom ipak va ulardan ishlab chiqarilgan ipak gazlamalarning texnologik va sifat ko‘rsatkichlarini tadqiq qilish bo‘yicha kompleks ilmiy tadqiqotlar olib borish bo‘yicha tadqiqotlar yetarlicha o‘tkazilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston tabiiy tolalar ilmiy tadqiqot institutining FZ-200010286- sonli “Tabiiy ipakdan xalqaro andozalarga mos yangi turdagi yuqori sifatli krep gazlamalar

va ularni ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** quyi chiziqli zichlikdagi bir qavatli xom ipakni to‘qishga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish va eshilgan bir qavatli xom ipakdan yupqa, nafis ipak gazlama assortimentini yaratish va uni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

xom ipak ishlab chiqarish va uni qayta ishlash hamda ipak iplariga buram berish texnologiyalarini takomillashtirish bo‘yicha bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilish;

xom ipak iplariga buram berish va xom ipak iplarini to‘qishga tayyorlash texnologik jarayonlarini tadqiq qilish;

bir qavatli xom ipakka buram berish jarayonlarining optimal parametrlarini aniqlash va ishlab chiqish;

tadqiqot natijalarini joriy etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish va iqtisodiy samaradorligini baholash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida ingichka tolali mahalliy ipak qurti pillalari, bir qavatli xom ipak, qavatli eshish va to‘quv dastgohlari olingan.

**Tadqiqotning predmetini** mahalliy urug‘lardan yetishtirilgan pillalar, pillalarning texnologik xususiyatlari, pillalardan chuvib olingan xom ipakning texnologik ko‘rsatkichlari, bir qavatli xom ipak, bir qavatli xom ipakka buram berish va uning optimal parametrlarini aniqlashdagi uslub va vositalar tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida nazariy mexanika, statistik tahlil usullari, eksperimentlarni matematik rejalashtirish, iplar mexanikasi, amaliy matematika hamda tajribalar tahlili va matematik statistika, baholash va maqsadli elektron dasturlar vositasida muqobillashtirish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

bir qavatli tabiiy ipakdan ko‘ylakbop to‘qimalarini ishlab chiqarishda tanda va arqoq iplariga buram berish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

tabiiy ipakdan to‘qimalar ishlab chiqarish uchun ipning yaxlitligini ta’minlaydigan bir qavatli tanda va arqoq iplariga buram berish jarayonida ularga 300, 400 va undan ortiq buram berib, bir qavatli ipakdan to‘qima olish uchun eshishning maqbul varianti ishlab chiqilgan;

bir qavatli quyi chiziqli zichligli xom ipak tanda va arqoq iplarini eshishning texnologik parametrlarini optimal qiymatlari to‘la omilli tajriba usuli yordamida olingan regressiya modellarini tahlili asosida iplarini uzilishga chidamliligi yuqori bo‘lishi aniqlangan;

takomillashtirilgan usulda to‘quvga tayyorlangan bir qavatli xom ipakdan tanda va arqoq iplariga 450 buram berilgan 2,33Z to‘quv iplaridan tashkil topgan, to‘quv iplari zichligi o‘zgarmagan holda to‘qimaning jipsligini ortishini ta’minlaydigan ko‘ylakbop tabiiy ipak to‘qimasining turi yaratilgan va na‘muna variant ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

xom ipakni to‘qishga tayyorlash texnologiyasi ularga ma’lum miqdorda buram berish texnologik jarayonini kiritish orqali takomillashtirilgan, natijada xom ipak

ipining uzuvchi kuch va uzulishdagi cho‘zilish ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilangan;

respublika ipakchilik sanoatida ilk bor bir qavatli tanda iplariga ham, arqoq iplariga ham ma’lum miqdorda buram berilgan va uning optimal parametrlari ishlab chiqilgan;

olingan bir qavatli xom ipakdan yuza zichligi yuqori bo‘lgan yupqa ipak gazlama to‘qish uchun bir qavatli xom ipakka ma’lum darajada buram berish uchun beriladigan buramning optimal parametri to‘liq omilli tajriba o‘tkazish asosida aniqlab olingan;

o‘tkazilgan laboratoriya sinovi natijalarini tahliliga ko‘ra xom ipakning uzuvchi kuch bo‘yicha ko‘rsatkichi eshilgandan keyin 18,6% ga, uzulishdagi cho‘zilish ko‘rsatkichi esa 15% ga ortgan. Eshilgan xom ipak ipining jipsligini esa eshilmagan xom ipakka nisbatan 23% ga oshirishga erishilgan;

laboratoriya sinovlari natijasida takomillashtirilgan usulda tayyorlangan bir qavatli xom ipakdan to‘qilgan to‘qimaning 10,0 sm qirqimdagi uzuvchi kuchi tanda iplari bo‘yicha standart ko‘rsatkichiga nisbatan 54,4% ga, nazorat variantiga nisbatan esa 85,3% ga, xuddi shu ko‘rsatkichlar arqoq iplari bo‘yicha standart ko‘rsatkichiga nisbatan 17,75% ga, nazorat variantiga nisbatan esa 64,3% ga orttirishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiyadagi nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarining o‘zaro mosligi, izlanishlarning zamonaviy uslub va vositalardan foydalanilgan holda asosli o‘tkazilganligi, ularning mavjud va amal qilayotgan fundamental nazariyaga mantiqan muvofiq, qiyosiy olingan natijalarning ishlab chiqarishga joriy etilgani bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati respublika ipak sanoatida ilk bor bir qavatli tanda va arqoq iplariga ma’lum miqdorda buram berilganligi va buramlarning optimal ko‘rsatkichlari aniqlanganligi, xom ipak iplarining uzuvchi kuch bo‘yicha ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada oshirish imkoniyati yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati xom ipak iplarini to‘quvga tayyorlash va to‘qish jarayonlarida bir qavatli xom ipakka buram berishni qo‘llanilishi natijasida uzulishlar sonini keskin qisqarganligi, buning oqibatida esa ishlab chiqarilayotgan to‘qimaning sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tabiiy ipakdan yuqori sifatli yupqa nafis ko‘ylakbop gazlamalar ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish asosida:

yupqa nafis pardozlangan gazlamalar olishni takomillashtirilgan usulini Farg‘ona viloyati, Marg‘ilon shahridagi “Sharq ipagi Durdonasi” MCHJ korxonasi ishlab chiqarishga joriy etilgan (“O‘zbekipaksanoat” uyushmasining 2025-yil 29-iyuldagi №4-2/1304-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, xom ipakdan to‘qilgan to‘qimaning uzulish kuchi tanda iplari bo‘yicha 85,3% ga, arqoq iplari bo‘yicha esa 64,3% ga yaxshilangan hamda korxonada kutilayotgan yillik iqtisodiy samaradorlik 2 507 707 ming (ikki milliard besh yuz yetti million yetti yuz yetti ming) so‘mni tashkil etgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishining natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi:** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 101 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mos kelishi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi va ishlab chiqarishga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot mavzusi bo'yicha mavjud adabiyot manbalarining tahlili, ilmiy tadqiqotlar sharxi va vazifalarni qo'yilishi”** deb nomlangan birinchi bobida sifatli pilla yetishtirish, yetishtirilgan pillalardan jahon standarti andozalariga mos keladigan yuqori sifatli xom ipak olish, ipakli gazlamalarning assortimentlarini kengaytirish va sifatini yaxshilash, mahsulot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf qilish, ipakli mahsulotlarning hajmini o'stirish hamda sohani eksport salohiyatini orttirish yo'nalishlarida o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Sohaning yetakchi olimlari, mutaxassislari va tadqiqotchilari tomonidan o'tkazilgan tadqiqot ishlarining tahlili asosida dissertatsiya ishining maqsadi, yo'nalishlari va vazifalari belgilab olingan.

Dissertatsiyaning **“Xom ipakni to'quvga tayyorlash texnologiyasini tadqiq qilish va takomillashtirish”** deb nomlangan ikkinchi bobi xom ipakni to'quvga tayyorlash jarayonida bir qavatli xom ipakka buram berish orqali to'quvga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot ishlari, beriladigan buram miqdorini optimal parametrlari to'la omilli tajriba usulida aniqlash, eshilgan bir qavatli ipakka buram berish texnologiyalarini tadqiq qilish va boshqa talqiqot ishlarini bajarish masalalariga bag'ishlangan.

Ushbu dissertatsiya tadqiqotida “Gaz” to'qimasi ishlab chiqarish uchun xom ipakni to'quvga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish ko'zda tutilgan. “Gaz” to'qimasi ishlab chiqarish uchun tut ipak qurtining mahalliy urug'idan yetishtirilgan ingichka tolali pillalardan chiziqli zichligi 2,33 *tex* bo'lgan xom ipak O'zbekiston tabiiy tolalar ilmiy tadqiqot institutidagi FY 502 rusumli pilla chuvish dastgohida ipak chuvish amaliyoti amalga oshirildi.

Dastlab tajriba va nazorat pillalari namunalari O‘zbekiston tabiiy tolalar ilmiy tadqiqot institutining sinov laboratoriyasida yakka chuvish usulida sinovdan o‘tkazildi. Sinovlar UzNIISHP tizimidagi pillalarni yakka chuvish laboratoriya dastgohida amalga oshirildi. Pillalardan xom ipak ishlab chiqarish FY 502 rusumli pilla chuvish dastgohida amalga oshirildi. Pillalarni chuvishda pillalarni yakka chuvish amaliyoti natijalarini hisobga olgan holda FY 502 rusumli pilla chuvish dastgohida pillalarni chuvishning quyidagi 1-jadvalda keltirilgan parametrlari tavsiya etildi.

**1-jadval**

**Tajriba va nazorat pillalarini FY 502 pilla chuvish dastgohida chuvishning texnologik parametrlari**

t/r	Ko‘rsatkichlarning nomlanishi	O‘lchov birligi	Variantlar	
			Tajriba	Nazorat
1	Xom ipakning chiziqli zichligi	<i>teks</i>	2,33	2,33
2	Dastadagi pillalar soni	<i>dona</i>	9	7
3	Dastadagi yangi va eski pillalar nisbati	<i>dona /dona</i>	4/5	5/2
4	Chirmoviq uzunligi	<i>mm</i>	60	60
5	Pilla chuvish tezligi	<i>m/daq.</i>	100	100
6	Pilla chuvish tosidagi suv harorati	°C	45	45
7	Quritish shkafi harorati	°C	45-50	45-50

Tajriba va nazorat variantidagi pillalarni chuvish amaliyoti O‘zTTITining ishlab chiqarish tajriba bazasida o‘rnatilgan FY 502 rusumli mexanik pilla chuvish dastgohida amalga oshirildi. Tajriba va nazorat pillalarini FY 502 pilla chuvish dastgohida o‘tkazilgan pilla chuvish amaliyoti natijasida ishlab chiqarilgan xom ipakning ayrim texnologik ko‘rsatkichlari quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

**2-jadval**

**Tajriba va nazorat pillalarini chuvish jarayonida ishlab chiqarilgan xom ipakning ba’zi bir texnologik va miqdor ko‘rsatkichlari**

t/r	Xom ipak assortimenti	Ipak mahsulotlarining chiqishi, %						Pilla qobig‘i chuvaluvchanligi, %	Pilla solishtirma sarfi, kg/kg
		Xom ipak	Pilla losi	Plenka qobig‘i	Jami ipak mahsuloti	Pilla g‘um-bagi	Eruvchi maxsulotlar		
Tajriba varianti mahalliy ingichka tolali urug‘i pillasidan ishlab chiqarilgan xom ipak									
1	2,33 <i>tex</i>	43,1	4,43	2,1	49,63	47,8	1,57	92,88	2,32
Nazorat varianti mahalliy urug‘i pillalaridan ishlab chiqarilgan xom ipak									
2	2,33 <i>tex</i>	34,4	6,78	5,9	47,08	48,2	4,72	84,76	2,91

2-jadvalda keltirilgan ko‘rsatkichlarni tahlilidan ko‘rinib turibdiki, tajriba varianti pillalaridan xom ipak ishlab chiqarishda juda yaxshi texnologik ko‘rsatkichlar olingan.

Xom ipak kalavalardan g'altaklarga M-210-SHL qayta o'rash dastgohida qayta o'rab olingandan keyin ularga KE-45-SHL qavatli eshish dastgohida Z o'ng yo'nalishda buram berilgan. Ammo bundan oldin to'la omilli tajriba usulida optimal buramlar soni aniqlab olingan. Dissertatsiya ishida bir qavatli xom ipakka beriladigan buramning optimal parametrlarini aniqlash uchun tajribalar, to'la omilli eksperimentlar sifatida rejalashtirildi. Optimallashtirish jarayonini amalga oshirish uchun kiruvchi va chiquvchi omillar tanlab olindi.

Kiruvchi omillar sifatida quyidagilar tanlab olindi:

$X_1$  – chiziqli zichlik bo'yicha og'ish, *tex*

$X_2$  – buramlar soni, *br/m*

Chiqurchi omillar sifatida quyidagilar tanlab olindi:

$Y_1$  – nisbiy uzilish kuchi, *cN/tex*

$Y_2$  – nisbiy uzilishdagi cho'zilish, %

Dastlabki sinov tajribalar yordamida omillarning asosiy sathi va o'zgartirish oralig'i qiymatlari aniqlab olinadi (3-jadvalga qarang).


### 3-jadval

#### Omillarni asosiy sathi va o'zgartirish oralig'i qiymatlari

Omillar	O'zgartirish sathlari					$I_i$
	-1,414	-1	0	1	1,414	
$X_1$	2,19	2,23	2,33	2,43	2,47	0,10
$X_2$	380,00	400,00	450,00	500,00	520,00	50,00

Hisob-kitoblardan keyin quyidagi ikkinchi darajali regression model olindi va chiziqli zichlik bo'yicha og'ishi va buramlar soni bilan nisbiy uzilish kuchi o'rtasida quyidagi bog'lanish mavjudligi aniqlandi.

$$Y_R = 37,9 - 0,49x_1 - 0,37x_2 - 0,43x_1^2 - 0,24x_2^2$$




1-rasm. Chiziqli zichligi bo'yicha og'ishini va buramlar sonini, nisbiy uzilish kuchi ko'rsatkichiga bog'liqlik grafigi

1-rasmdagi grafikdan ko'rinib turibdiki, kiruvchi birinchi ( $x_1$ ) va ikkinchi ( $x_2$ ) omillarining qabul qilingan minimal (-1) qiymatidan maksimal (1) qiymatigacha o'zgarib borganda va birinchi omilning o'rtacha qiymatidan foydalanib ( $Y_1$ ) nisbiy uzilish kuch ko'rsatkichini o'zgarishi bo'yicha qiymatlar tasvirlangan. Chizmadan

foydalanib nisbiy uzilish kuchini  $x_1$ -chiziqli zichligi bo'yicha og'ishini ( $tex$ ) 2.20÷2.46 oraliqlarda va  $x_2$  – buramlar soni ( $br/m$ ) 396÷504 oraliqdagi qiymatlarida ( $Y_1$ ) nisbiy uzilish kuchi ko'rsatkichi bo'yicha grafik ta'svirlangan. Chiziqli zichligi bo'yicha og'ishi-1÷0 gacha va buramlar soni-1÷-0.2 gacha bo'lgan oraliqlarda ipning nisbiy uzilish kuchi ko'rsatkichlar eng yuqori qiymatga ega ekanligi aniqlandi. Keyingi o'tkazilgan hisoblashlar bilan chiziqli zichlik bo'yicha og'ishi va buramlar soni bilan nisbiy uzilishdagi cho'zilish o'rtasida quyidagi bog'lanish mavjudligi aniqlandi va u quyidagicha ifodalanadi:

$$Y_R = 23,11 + 0,27x_1 + 0,3x_2 - 0,3x_2^2$$

Olingan regression matematik model tadqiq etilayotgan jarayonni yetarli aniqlikda ifodalaydi va adekvat hisoblanadi.



**2-rasm. Chiziqli zichligi bo'yicha og'ish va buramlar sonini, nisbiy uzilishdagi cho'zilish ko'rsatkichiga bog'liqlik grafigi**

2-rasmdagi grafikdan ko'rinib turibdiki, kiruvchi birinchi ( $x_1$ ) va ikkinchi ( $x_2$ ) omillarining qabul qilingan minimal (-1) qiymatidan maksimal (1) qiymatigacha o'zgarib borganda va birinchi omilning o'rtacha qiymatidan foydalanib ( $Y_1$ ) nisbiy uzilishdagi cho'zilish ko'rsatkichini o'zgarishi bo'yicha qiymatlar tasvirlangan. Chizmadan foydalanib nisbiy uzilishdagi cho'zilishni  $x_1$ -chiziqli zichligi bo'yicha og'ishini ( $tex$ ) 2.20÷2.46 oraliqlarda va  $x_2$  – buramlar soni ( $br/m$ ) 396,0÷504,0 oraliqdagi qiymatlarida ( $Y_1$ ) nisbiy uzilishdagi cho'zilish ko'rsatkichi bo'yicha grafik tasvirlangan. Chiziqli zichligi bo'yicha og'ishi 0.6÷1 gacha va buramlar soni 0.2÷1 gacha bo'lgan oraliqlarda ipning nisbiy uzilishdagi cho'zilishi ko'rsatkichlari eng yuqori qiymatga ega ekanligi aniqlandi. Yuqorida o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida bir qavatli xom ipakka beriladigan buramning optimal miqdori 450,0  $br/m$  deb belgilab olindi va bir qavatli xom ipakka 450,0  $br/m$  miqdorida Z o'ng yo'nalishda buram berildi.

Tajriba varianti xom ipagiga buram berish jarayoni KE-145-SHL qavatli eshish dastgohida ortiqcha qiyinchiliklarsiz amalga oshirildi. Eshilgan bir qavatli xom ipakning buramlari KSZX-1,4-4 vakuum bug'lash apparatida 70,0-80,0°S xaroratda  $4,7 \cdot 10^5$  ishchi bosim ostida 20,0 daqiqa davomida maxkamlandi. Buramlari

maxkamlangan xom ipak iplari texnologik jarayonning keyingi bosqichiga o'tkazildi. Eshilgan xom ipakdan tanda va arqoq iplarini tayyorlashdan oldin O'zTTITIning sinov laboratoriyasida eshilgan xom ipak iplarining sifat ko'rsatkichlari aniqlab olindi va natijalari quyidagi 4-jadvalda keltirildi.

**4-jadval**

**Eshilgan bir qavatli xom ipakning kompleks laboratoriya sinovi natijalari**


t/r	Ko'rsatkichlarning nomlanishi	O'lchov birligi	Sonli ko'rsatkichlar	
			Eshilgan	Eshilmagan
1	Xom ipakni nominal chiziqli zichligi	<i>teks</i>	2,33	2,33
2	Xom ipakni xaqiqiy chiziqli zichligi	<i>teks</i>	2,37	2,23
3	Nominal chiziqli zichlikdan og'ish	<i>teks</i>	+ 0,04	-0,10
4	Nominal buramlar soni	<i>br/m</i>	450	-
5	Xaqiqiy buramlar soni	<i>br/m</i>	458	-
6	Nominal buramlar sonidan og'ish	<i>br/m</i>	+8	-
7	Nisbiy uzish kuchi	<i>sN/ tex</i>	38,31	32,25
8	Eshilmagan ipga nisbatan og'ish	%	+18,60	-
9	Uzilishdagi cho'zilish	%	23,23	20,20
10	Eshilmagan ipga nisbatan og'ish	%	+15,00	-
11	Ipning jipsligi karetkaning yurish soni	<i>dona</i>	96	78
12	Eshilmagan ipga nisbatan og'ish	%	+23	-

4-jadvalda keltirilgan laboratoriya sinovi natijalarini taxlilidan shuni ko'rish mumkinki eshilgan bir qavatli xom ipak eshilmagan bir qavatli xom ipakka nisbatan sezilarli darajada ustunlikka ega. Xom ipakning uzuvchi kuch bo'yicha ko'rsatkichi eshilgandan keyin 18,6 %-ga, uzilishdagi cho'zilish ko'rsatkichi esa 15,0 %-ga ortgan. Eshilgan xom ipak ipining jipsligi esa eshilmagan xom ipakka nisbatan 23,0 %-ga ortgan. Xom ipakning eshilgandan keyin sifat ko'rsatkichlarini bunday ortishi keyingi jarayonlarni muvoffaqiyatli o'tishini ta'minlaydi.

Yangi yaratilayotgan ipakli to'qima "Gaz" to'qimasi asosida ishlab chiqariladi, ammo yangi to'qimaning yuza zichligi "Gaz" gazlamasidan ancha yuqori bo'ladi va shunga asosan eshilgan xom ipak keyingi ishlab chiqarish bosqichiga tayyorlandi. Ishlab chiqarish texnologiyasiga asosan ishlab chiqarishning navbatdagi bosqichi eshilgan xom ipak iplarini to'quvga tayyorlash bosqichi hisoblanadi va bu bosqichda eshilgan xom ipakdan tanda xamda arqoq iplari tayyorlab olinadi.

Dissertatsiyaning "Eshilgan bir qavatli xom ipakdan ipak gazlama to'qish va olingan to'qimaning sifat va texnologik ko'rsatkichlarini tadqiqi" deb nomlangan uchinchi bobida bir qavatli eshilgan xom ipakdan yangi assortimentdagi ipakli to'qima to'qish amaliyotining natijalari keltirilgan. Yangi assortimentdagi ipak gazlamaning tajriba namunalarini to'qish amaliyotini amalga oshirishdan oldin gazlamani texnik hisobi ishlab chiqiladi va to'qima to'qish shu texnik hisob ko'rsatkichlaridan kelib chiqqan xolda amalga oshiriladi. 3-rasmda bir qavatli

eshilgan xom ipakdan yangi assortimentdagi to‘qima to‘qishning texnologik tizimi keltirilgan.



**3-rasm. Bir qavatli eshilgan xom ipakdan yangi assortimentdagi to‘qima to‘qishning texnologik tizimi**

3-rasmda keltirilgan bir qavatli eshilgan xom ipakdan yangi assortimentdagi ko‘ylakbop gazlamalarni to‘qish texnologik tizimi taxlili shuni ko‘rsatadiki bu assortimentdagi to‘qimalarni to‘qish amaliyoti O‘zTTITI ning tajriba sinov bazasida o‘rnatilgan texnologik dastgohlarida amalga oshiriladi. 5-jadvalda takomillashtirilgan usulda to‘quvga tayyorlangan bir qavatli eshilgan xom ipakdan ipakli gazlamalarning yangi assortimentining to‘qishni texnik hisobi keltirilgan.

Quyidagi 5-jadvalda keltirilgan gazlamaning texnik hisobining taxlidan shuni ko‘rish mumkinki, xom ipakning xar bir metriga  $450,0 \pm 10,0$  br/m miqdorida buram berilgan. Bajarilgan texnik hisobda ishlab chiqariladigan gazlama eni  $65,0 \pm 1,0$  sm deb belgilangan, bunda tanda iplarining soni 2956,0 dona-ni tashkil etgan bo‘lib, ularning 2816,0 dona-si fon iplari, 140,0 dona-si esa qirg‘oq iplarini tashkil etgan.

## 5-jadval

**Takomillashtirilgan usulda to'quvga tayyorlangan bir qavatli eshilgan xom ipakdan ipakli gazlamalarning yangi assortimentining to'qishni texnik hisobi**

t/r	Ko'rsatkichlar nomlanishi	O'lchov birligi	Sonli ko'rsatkichlar
1	Dastgoh rusumi	TM-61	
2	Xom matoning eni	<i>Sm</i>	65±1
3	Xom ipak ipining chiziqli zichligi: tanda arqoq	<i>teks (N)</i>	2,33 (429/1)
		<i>teks (N)</i>	2,33 (429/1)
4	Tanda iplari soni: shu jumladan : fon qirg'oq	<i>Dona</i>	2956
		<i>Dona</i>	2816
		<i>Dona</i>	140
5	Remizlar soni fon	<i>Dona</i>	4
6	Remizlar soni qirg'oq uchun	<i>Dona</i>	-
7	Tig' (berdo) raqami	<i>tish/dm</i>	220
8	Matoning tig' bo'yicha eni shu jumladan: qirg'oq	<i>Sm</i>	65,5
		<i>Sm</i>	1,6
9	Ip o'tkazilgan tishlar soni shu jumladan: qirg'oq	<i>dona</i>	1443
		<i>dona</i>	35
10	Matoning o'rilish turi (perepleteniye)	Polotno	
11	10 sm dagi iplar soni: tanda bo'yicha arqoq bo'yicha	<i>dona</i>	440
		<i>dona</i>	426
12	Tanda iplarining qisqarishi	%	3.4
13	Arqoq iplarining kirishishi	%	3.1
14	Iplardan chiqadigan chiqindilar: tanda bo'yicha arqoq bo'yicha	%	1
		%	1.4
15	100 m xom matoga sarflanadigan xomashyo shu jumladan: tanda bo'yicha arqoq bo'yicha	<i>kg</i>	1,340
		<i>kg</i>	0,765
		<i>kg</i>	0,575
16	Chiqindilarni hisobga olgan xolda 100 m matoga xomashyo sarfi: shu jumladan: tanda bo'yicha arqoq bo'yicha	<i>kg</i>	1,356
		<i>kg</i>	0,773
		<i>kg</i>	0,583
17	Tayyor gazlama eni	<i>sm</i>	65±2
18	1 m xom gazlama massasi	<i>g</i>	13±2
19	1 m <sup>2</sup> xom gazlama massasi	<i>g/m<sup>2</sup></i>	22±2
21	Xom ashyo tarkibi: tanda – tabiiy ipak arqoq – tabiiy ipak	%	51
		%	49

Ishlab chiqarilayotgan gazlamada tanda va arqoq bo'yicha zichlik bir xilda, ya'niy 10,0 *sm*-da 440,0 ± 10,0 *dona*-ni tashkil etadi. Buning uchun № 220 sonli

tig‘dan (berdo) foydalaniladi, bunda ip o‘tkazilgan tishlar soni 1443,0 *dona*-ni, shu jumladan qirg‘oq iplari o‘tkazilgan tishlar 35,0 tani tashkil etadi. Bunday to‘qilish tizimida to‘qimaning tig‘ bo‘yicha eni 65,5 *sm*-ni, shu jumladan qirg‘oq eni 1,6 *sm*-ni tashkil etadi. Ishlab chiqarilgan 1,0 *m* xom to‘qimaning vazni  $13,0 \pm 2,0$  *g*-ni 1,0 *m*<sup>2</sup> xom to‘qimaning vazni esa  $22,0 \pm 2,0$  *g*-ni tashkil etadi. Bir qavatli eshilgan xom ipakdan ipakli gazlamalarning yangi assortimentini to‘qish “Palotno” o‘rinish usulida to‘qiladi. To‘qimani ishlab chiqarishga gazlamadagi tanda va arqoq iplarining zichligiga qarab sarflangan xom ipakning 51,0 %-ini tanda iplari 49,0 %-ni arqoq iplari tashkil etadi.

Bir qavatli eshilgan xom ipakdan ipakli gazlamalarning yangi assortimentining namunalarini to‘qish O‘zTTITIning ishlab chiqarish tajriba bazasida o‘rnatilgan TM-61 mexanik to‘quv dastgohida amalga oshirildi. Takomillashtirilgan usulda to‘qishga tayyorlangan bir qavatli xom ipakdan yupqa nafis ipakli gazlamalar namunalarini TM-61 mexanik to‘quv dastgohida to‘qish amaliyoti qiyinchiliksiz amalga oshirildi.

### 6-jadval


#### Xom to‘qimaning fizik-mexanik ko‘rsatkichlari bo‘yicha o‘tkazilgan laboratoriya sinovlari natijalari

t/r	Ko‘rsatkichlarning nomlanishi	Standart ko‘rsatkichi	Variantlar	
			Tajriba	Nazorat
1	2	3	4	5
1	To‘qima eni, <i>sm</i>	99,0	65,33	80,23
2	Yuza zichligi, kamida $g/m^2$ $g/m$	12,36 10,94	33,05 21,57	18,61 14,93
3	10 <i>sm</i> -dagi ip zichligi, <i>dona</i> tanda bo‘yicha arqoq bo‘yicha	180 160	440 426	408 338
4	O‘lchami 50x200 <i>mm</i> bo‘lgan to‘qima qirqimining uzuvchi kuchi, kamida, <i>kgc</i> ( <i>N</i> ), tanda bo‘yicha arqoq bo‘yicha	12,0 (117,6) 12,0 (117,6)	18,53 (181,1) 14,13 (138,6)	10,0 (98,1) 8,6 (84,4)
5	O‘lchami 50x200 <i>mm</i> bo‘lgan to‘qima qirqimining uzilishdagi cho‘zilishi, kamida, %, tanda bo‘yicha arqoq bo‘yicha	13,0 15,0	19,17 18,87	14,17 15,17
1	2	3	4	5
6	Xomashyo nomi, chiziqli zichligi (metrik nomeri) tanda bo‘yicha arqoq bo‘yicha	NSHS 3,23 <i>tex</i> (№ 310)  NSHS 3,23 <i>tex</i> (№ 310)	NSHS 450 <i>br/m</i> 2,41 <i>tex</i> (№ 415) NSHS 450 <i>br/m</i> 2,34 <i>tex</i> (№ 428)	NSHS 3,23 <i>tex</i> (№ 310) NSHS 3,23 <i>tex</i> (№ 310)

Bir qavatli eshilgan xom ipak iplaridan ishlab chiqarilgan yangi assortimentdagi ipakli to‘qimaning sifat ko‘rsatkichlari O‘zTTITIning sinov laboratoriyasida amaldagi davlat standartlarining talablari va uslublari bo‘yicha aniqlandi. Amaldagi standartlar uslublari bo‘yicha to‘qimalarning fizik-mexanik ko‘rsatkichlari to‘qimalarning 50,0 x 200,0 mm-li qirqimlarida aniqlanadi. O‘tkazilgan laboratoriya sinovlarining natijalari yuqoridagi 6-jadvalda keltirilgan.

6-jadvalda keltirilgan laboratoriya sinovlarining taxlilidan shularni ko‘rish mumkinki, takomillashtirilgan texnologiya bo‘yicha tayyorlangan bir qavatli xom ipakdan to‘qib chiqarilgan ipakli to‘qima juda yaxshi fizik-mexanik ko‘rsatkichlarga ega. Tajriba variantida ishlab chiqarilgan 1,0 m<sup>2</sup> gazlamaning yuza zichligi standart ko‘rsatkichiga nisbatan 2,7 barobar, nazorat variantiga nisbatan 1,8 barobar, 1,0 m gazlamaning yuza zichligi esa standart ko‘rsatkichiga nisbatan 2,0 barobar, nazorat variantiga nisbatan 1,4 barobar yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin. 10,0 sm-dagi ip zichligi standart ko‘rsatkichlariga nisbatan tanda ipi bo‘yicha 2,5 barobar, arqoq ipi bo‘yicha 2,7 barobarga, nazorat varianti ko‘rsatkichlariga nisbatan esa tanda ipi bo‘yicha 1,1 barobar, arqoq ipi bo‘yicha esa 1,26 barobar yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin.


O‘tkazilgan laboratoriya sinovlari natijasida aniqlangan uzuvchi kuch va uzilishdagi cho‘zilish bo‘yicha gistogrammalar qurildi. Quyidagi 4-rasmda o‘lchami 50,0 x 200,0 mm bo‘lgan to‘qima qirqimining uzuvchi kuchi  $H(kgs)$  gistogrammasi, 5-rasmda esa o‘lchami 50,0 x 200,0 mm bo‘lgan to‘qima qirqimining uzilishdagi cho‘zilishi (%) gistogrammasi keltirilgan.



**4-rasm. O‘lchami 50x200mm bo‘lgan to‘qima qirqimining uzuvchi kuchi N (kgs) gistogrammasi.**

6-jadval va 4-5-raslarda keltirilgan laboratoriya sinovlari natijalarini taxlili shuni ko‘rsatadiki takomillashtirilgan usulda tayyorlangan bir qavatli xom ipakdan to‘qilgan to‘qimaning 10,0sm qirqimdagi uzuvchi kuchi tanda iplari bo‘yicha standart ko‘rsatkichiga nisbatan 54,4% ga, nazorat variantiga nisbatan esa 85,3% ga, xuddi

shu ko‘rsatkichlar arqoq iplari bo‘yicha standart ko‘rsatkichiga nisbatan 17,75% ga, nazorat varian-tiga nisbatan esa 64,3% ga ortiq ekanligini ko‘rish mumkin.



**5-rasm. O‘lchami 50x200mm bo‘lgan to‘qima qirqimining uzilishdagi cho‘zilishi (%) gistogrammasi.**

Takomillashtirilgan usulda tayyorlangan bir qavatli xom ipakdan to‘qilgan to‘qimaning 10,0 sm qirqimdagi uzilishdagi cho‘zilish ko‘rsatkichi tanda iplari bo‘yicha standart ko‘rsatkichiga nisbatan 47,5% ga, nazorat variantiga nisbatan esa 35,3% ga, xuddi shu ko‘rsatkichlar arqoq iplari bo‘yicha standart ko‘rsatkichiga nisbatan 25,8% ga, nazorat variantiga nisbatan esa 43,3% ga ortiq ekanligini ko‘rish mumkin.

Takomillashtirilgan usulda to‘quvga tayyorlangan xom ipak iplaridan to‘qimalarda to‘qimaning eng asosiy fizik-mexanik ko‘rsatkichlaridan bo‘lgan uzuvchi kuch va uzilishdagi cho‘zilish ko‘rsatkichlarini nazorat varianti to‘qimalariga nisbatan sezilarli darajada ortishini bir qavatli xom ipakka berilgan buramlar hisobiga bo‘ladi deb tushintirish mumkin. Chunki bir qavatli iplarga buram berilganda ipning uzuvchi kuch va uzilishdagi cho‘zilishi 15-25% ga ortishi kuzatiladi. Demak to‘qimaning tarkibiy qismi bo‘lgan tanda va arqoq iplarini uzilish ko‘rsatkichlarini ortishi to‘qimani uzilish ko‘rsatkichlarini ortishiga olib keladi. Bu esa o‘z o‘rnida dissertatsiya tadqiqoti to‘g‘ri tanlanganligini yana bir bor isbotlab turibdi.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi **“Ishlab chiqarish korxonasi sharoitida takomillashtirilgan usulda to‘qima olish, ularni pardoz-lash va pardozlangan tayyor gazlamaning sifat ko‘rsatkichlarini tadqiqi”** deb nomlangan. Ushbu bobda takomillashtirilgan usulda to‘quvga tayyorlangan bir qavatli xom ipakdan yupqa to‘qima to‘qish va ularni pardoz-lash jarayonlari ishlab chiqarish korxonasining ishlab chiqarish sharoitida amalga oshirish, ishlab chiqarilgan gazlamalarni sinovi, kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya tadqiqoti doirasida ishlab chiqilgan yangi texnologiya asosida chiziqli zichligi 2,33 tex bo‘lgan bir qavatli eshilgan xom ipak iplaridan yupqa, yuza zichligi yuqori bo‘lgan yangi assortimentdagi ipakli to‘qimaning sanoat namunasini ishlab chiqarish “TANG GROUP” MCHJ qo‘shma korxonasining ishlab chiqarish

sharoitida amalga oshirildi. “TANG GROUP” MCHJ qo‘shma korxonasining ishlab chiqarish uchastkasida Rossiyada ishlab chiqarilgan TM-61 rusumli va Germaniyaning “Didereks” firmasida ishlab chiqarilgan mexanik to‘quv dastgohlari o‘rnatilgan bo‘lib, rejalashtirilgan ipakli gazlamalarning sanoat namunalari TM-61 rusumli to‘quv dastgohida amalga oshirildi. Ko‘ylakbop gazlamalarning sanoat namunalari chiziqli zichligi 2,33 *tex* bo‘lgan bir qavatli eshilgan xom ipakdan dissertatsiya doirasida ishlab chiqilgan texnik hisob asosida ishlab chiqarildi. Dastlab 450,0 *br/m* miqdorida buram berilgan va buramlari bug‘lash usulida maxkamlangan, chiziqli zichligi 2,33 *teks* bo‘lgan bir qavatli xom ipak iplari Germaniyaning Didereks firmasining piltali tandalash dastgohida tandalash valiklariga o‘rab olindi.

Bunda tanda iplarini umumiy soni 2956,0 *dona*-ni tashkil etgan bo‘lib tanda iplarining uzunligi 110,0 *m*-ni tashkil etdi. Tanda iplari tanda valiklariga o‘rab bo‘linib tandalash dastgohlaridan tushirilgandan keyin ularni to‘quv valiklariga qayta o‘rab olindi va to‘quv valiklari Rossiyada ishlab chiqarilgan TM-61 mexanik to‘quv dastgohiga zapravka qilinib o‘rnatildi. Chiziqli zichligi 2,33 *tex* bo‘lgan bir qavatli eshilgan xom ipakdan arqoq iplarini tayyorlash “TANG GROUP” MCHJ qo‘shma korxonasining ishlab chiqarish uchastkasida o‘rnatilgan Chexiyada ishlab chiqarilgan “Hakoba” rusumidagi naychalash avtomatida amalga oshirildi. Tayyorlab olingan to‘quv g‘altaklaridagi tanda iplari to‘quv dastgohining jixozlarida o‘tkazilib zapravka qilingandan keyin rejalashtirilgan to‘qimani to‘qishga kirishiladi. Tajriba variantidagi to‘qima namunalari to‘qish jarayoni qiyinchiliksiz amalga oshirildi, to‘qish jarayonida ip uzilishlari kam bo‘ldi. Ishlab chiqarilgan to‘qima namunalari laboratoriya sinovlaridan keyin oxarlash va bo‘yash uchun pardoqlash bo‘limiga o‘tkazildi.

Takomillashtirilgan usulda to‘qishga tayyorlangan bir qavatli xom ipakdan ishlab chiqarilgan yupqa nafis to‘qmalarning pardoqlash jarayoni to‘qimalarni pishirish usulida yelimsizlantirish va yog‘sizlantirishdan boshlanadi. Tabiiy ipakdan tayyorlangan eshilgan ip va gazlamalarni yelimsizlantirish va yog‘sizlantirish ularni soda-sovunli eritmalarda qaynatib pishirish usulida amalga oshiriladi. Ipakli gazlamalarni yelimsizlantirish va yog‘sizlantirish MK-10 rusumidagi bo‘yash apparatida, “Djiger”larda yoki bo‘yash qozonlarida soda-sovunli suvli eritmalarda amalga oshirilishi mumkin. 7-jadvalda soda-sovunli eritmaning kimyoviy tarkibi keltirilgan.

## 7-jadval

### Takomillashtirilgan usulda olingan to‘qimalarni yelimsizlan-tirish va yog‘sizlantirish uchun soda-sovunli eritmaning tarkibi

t/r	Ko‘rsatkichlarning nomlanishi	O‘lchov birligi	Sonli ko‘rsatkichi
1	60 %-li sovun	<i>g/l</i>	2,5
2	Kalsiylangan soda	<i>g/l</i>	1,5
3	Sirtqi faol qo‘shimcha	<i>g/l</i>	0,5
4	Ohorlovchi modda – belofor	<i>g/l</i>	1,0

